

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

ADAPTIV JISMONIY MADANIYAT RIVOJLANISHINING FAOLIYAT YO'NALISHI.

10.53885/edinres.2022.41.26.033

Nazarova N.E., BuxDU Jismoniy madaniyat nazariyasi va
uslubiyati kafedrasini o'qituvchisi.

Ergashev D.E., BuxDu jismoniy madaniyat fakulteti
psixologiya (sport) yo'nalishi 3 kurs talabasi.

Аннотасија.

Ushbu maqolada adaptiv jismoniy madaniyatning rivojlanishi va faoliyat yo'nalishlari hususida ma'lumotlar berilgan. Imkoniyati cheklangan insonlarni jamiyatdagi o'rnini, muammolar va ularning yUECHIMLARI hamda sohada mutaxassislarni tayyorlash xususida so'z boradi.

Аннотация.

В данной статье дана информация об развитии адаптивной физической культуры и об направлении деятельности. Рассматриваются вопросы места в обществе лиц с ограниченными возможностями, проблемы и пути их решения а также, о подготовке кадров в сфере.

Annotation.

This article provides information about the development of adaptive physical culture and the direction of activity. The issues of the place in society of persons with disabilities, problems and ways to solve them, as well as training in the field are considered.

Kalit so'zlar: Adaptiv jismoniy tarbiya, adaptiv sport, imkoniyati cheklanganlar, sport-sog'lomlashtirish va jismoniy tarbiya, jismoniy va psixologik jihatlar, paralimpiya sporti.

Ключевые слова: Адаптивная физическая культура, адаптивный спорт, люди с ограниченными возможностями, физкультурно-оздоровительная воспитание, физические и психические качества, паралимпийский спорт.

Key words: Adaptive physical culture, adaptive sports, people with disabilities, health education, physical and mental qualities, Paralympic sports.

O'zbekistonda ro'y berayotgan ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga qaramay, nogironligi bo'lgan shaxslar hayotning turli sohalarida, masalan, jamoat joylari, sport majmualari, ta'lim muassasalaridan foydalanish imkoniyati va hokazolarda kamsitishlarga duch kelmoqda.

Imkoniyati cheklangan insonlarning muammolari shunchalik kengki, ular kompleks ilmiy yondashuvni, turli bilim sohalarini mutaxassislari - o'qituvchilar, ijtimoiy xodimlar, shifokorlar, psixologlar, defektologlar va boshqalarning ishtirokini talab qiladi.

Ma'lumotlarning qayd etishicha, o'tkan yil holatiga ko'ra, yurtimizda 710 mingga yaqin nogironligi bo'lgan shaxs ro'yxatga olingan. Ular yurtimizning turli hududlarida, turli sharoitlarda yashaydilar. Eng achinarlisi, ularning atigi 10%i oliy ma'lumotli¹.

Ushbu muammolarni ijobiy hal etish umidi jamiyatni insonparvarlashtirishning rivojlanayotgan tendentsiyasida, har bir inson, ayniqsa, mamlakat aholisining 10 foizini tashkil etadigan imkoniyati cheklangan, sog'ligida muammolarga uchragan insonlar uchun sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan strategik e'tiborda hamda eng avvalo sport-sog'lomlashtirish, jismoniy tarbiya va sport sohasida malakali mutaxassislarga muhtojdir⁷.

Mamlakatimizda va xorijda turli toifa va yoshdagi nogironlar bilan amaliy ish olib borishda ijobiy tajriba to'plangan. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda alohida ehtiyojli shaxslarga munosabatning yetakchi mafkurasi sifatida jamoatchilik bilan aloqalar va ta'limga inklyuziv jarayonlar faol joriy etilmoqda.

To'plangan amaliy tajriba va ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jismoniy mashqlar harakatning uyushgan shakli sifatida chuqur biologik va psixofiziologik asosga ega bo'lib, bemorning hayoti uchun tabiiy stimulyator hisoblanadi⁶.

Adaptiv jismoniy madaniyat - nogironlar uchun jismoniy tarbiya - bu imkoniyati cheklangan insonlarni rehabilitatsiya qilish va normal muhitga moslashtirishga, jamiyatning ijtimoiy rivojlanishiga shaxsiy hissa qo'shish zarurligini anglash sifatida to'liq hayot tuyg'usiga to'sqinlik qiluvchi psixologik to'siqlarni yengib o'tishga qaratilgan sport va rekreatsion xarakterdagi tadbirlar majmuidir³.

Adaptiv jismoniy madaniyat turli maqsadlarga ega:

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

- hayotiy va kasbiy jihatdan muhim ko'nikma va malakalarni shakllantirish, jismoniy va psixologik sifatlarni rivojlantirish va takomillashtirish;

- salomatlik holatini mustahkamlash;

- qiziqishlari o'xshash odamlarni ijtimoiy-psixologik moslashish jarayonlariga jalb qilish;

- sport faoliyatida o'zini namoyon qilish va yuqori maqsadlarga erishish va boshqalar⁵.

Adaptiv jismoniy madaniyatni yanada rivojlantirishni bir necha yo'nalishda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

1) Adaptiv jismoniy tarbiya va adaptiv sport turlarini rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish. Hozirgi bosqichda ommaviy jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish ishlarini rivojlantirish va bu borada professional kadrlar tayyorlash ustuvor vazifalardan bo'lishi kerak.

2) Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun mavjud jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport inshootlarining mavjudligini ta'minlash. Nogironligi bo'lgan shaxslarning sport inshootlariga to'siqsiz kirishi uchun shart-sharoit yaratish va shu masa yuzasidan nazoratni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

3) Adaptiv jismoniy tarbiya va adaptiv sport turlari bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlash. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrda PF-5270-son "**Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida**"gi farmoni asosida 2018-2019 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida "**Paralimpiya sport turlari**" kafedrasini tashkil qilindi va 2019-2020 o'quv yilidan boshlab kafedra nomi "**Adaptiv jismoniy tarbiya va sport**"ga o'zgartirildi². Ammo viloyatlarda soha mutaxassislarni tayyorlash imkoniyati mavjud emas. Jismoniy tarbiya fakultetlari bitiruvchilari sog'lom, harakatchan qobiliyatli bolalar bilan ishlashga yo'naltirilgan va nogiron bolalar bilan ishlash istagini bildirganlar kasbiy qobiliyatsiz bo'lib chiqadi va ish tajribasiga ega bo'lgan hamkasblardan o'rganishga majbur bo'ladi. Bu salbiy faktlar, albatta, jismoniy faoliyat orqali bolalar va nogironlar salomatligini yaxshilashning mumkin bo'lgan ta'sirini kamaytiradi. Jismoniy madaniyat bo'yicha bo'lajak mutaxassislarda gumanitar texnologiyalar sohasidagi kompetentsiyani shakllantirish inklyuziv ta'limni rivojlantirish sharoitida ularning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatiga katta hissa qo'shishi mumkin⁴.

Yuqoridagi barcha yo'nalishlarni amalga oshirish faqat ma'muriy va davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari, xo'jalik yurituvchi subyektlar vakillarining birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan mumkin. Bu faoliyatga jismoniy tarbiya va sport, ta'lim, ijtimoiy ta'minot va hokozolar bo'yicha ilmiy va amaliy mutaxassislarni jalb etish zarur.

Shunday qilib, hozirgi vaqtda jamiyatni insonparvarlashtirish, o'zgarishlarga xizmat qiladigan jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash jarayoniga ta'lim jarayoniga zamonaviy sog'lomlashtirish va reabilitatsiya texnologiyalari va kompleks sog'lomlashtirish dasturlarini joriy etish zarur. Uning ushbu aholi guruhiga munosabati va bu bilan zamonaviy jamiyat rivojlanishida katta ijtimoiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan manbalar.

1. <https://yuz.uz/uz/news/imkoniyati-cheklangan-insonlar-uchun-imkoniyat-cheklanmasligi-kerak>

2. <https://jtsu.uz/uz/e/cathedra/86-adaptiv-jismoniy-tarbiya-va-sport-kafedrasini>

3. *Материалы Международной научно-практической конференции*

“Современные проблемы физической культуры и спорта”, посвященной 60-летию академика, профессора, доктора педагогических наук Керимова Фикрата Азизовича. Ташкент 2015 г. 2-часть (221-222 с).

4. Кадыров Р. Х., Назарова Н. Э. РАЗВИТИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ ВУЗА //Проблемы науки. – 2021. – №. 4 (63). – С. 52-54.

5. Safarov D. Z. O. G. L., Nazarova N. E., Sadriddinova D. H. Q. TA'LIM MUASSASALARIDA JISMONIY TARBIYA, SPORT TADBIRLARINING MAQSADI VA VAZIFALARI //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 1498-1505.

6. Nazarova N. E., Ergashev D. E. FORMATION OF MOTIVATION FOR PHYSICAL EXERCISE AND SPORTS FOR PEOPLE WITH DISABILITIES //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 476-484.

7. Nazarova N. E., Suyarov J. F. PROBLEMS OF SPORTS SELECTION AND ORIENTEERING AND WAYS TO SOLVE THEM //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 468-475.

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

8. Karomatovich I. A. PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL SUPPORT OF YOUNG TEAM ATHLETES //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 02. – C. 1011-1016.
9. Ibragimov A. K. DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM //E-Conference Globe. – 2021. – C. 333-338.
10. Karomatovich I. A. METHODS OF TEACHING CHILDREN FOR MOVEMENT ACTIVITIES IN THE PROCESS OF PHYSICAL EDUCATION //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 1. – C. 242-249.
11. Ibragimov A. K. Catalog of training tasks for training special endurance of young girl handball players. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. Year: 2020, Volume: 10, Issue: 11. P: 486-492. DOI: 10.5958/2249-7137.2020.01410. X.
12. Narzullayev, Farrux. "Qizlar sporti yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan qizlarning yengil atletika darslarida kuch siaftlarini rivojlantirishning pedagogik asoslari." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 1.1 (2020).
13. Ashrapovich, N. F. (2021). Determination of physical development of primary school students through national movement games. *Middle European Scientific Bulletin*, 11.
14. Ashrapovich, N. F. (2022). FORMS OF CONTROL OVER THE PROFESSIONAL AND PEDAGOGICAL ACTIVITY OF THE TRAINER AND ITS PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(1), 372-379.
15. Narzullayev, Farrux Ashrapovich, and Dinara Olimovna Begimkulova. "Sport psixodiagnostikasi fanini o'qitishda ta'lim texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari." *Science and Education* 3.4 (2022): 1724-1730.
16. Nematovich K. S. Abdueva Sitorabonu Savriddin kizi, Fatullayeva Muazzam Azimovna, Kurbanov Shukhrat Kuldoshevich. Using of innovation terms in physical education and sport lessons and their social and educational features //Journal of Critical Reviews. doi. – T. 10. – C. 470-471.
17. Abdueva S. S. Q. Determining the speed and strength of 14-15 year old handball players in jumping //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 11. – C. 1212-1220.
18. Abdueva S. S., Khurbonov S., Sabirova N. Evolution of physical performance and techniques of handball girls aged 11-12 //International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (IJARSET). – 2019.
19. Abdueva S. S. Activities that increase children's interest in the sport of handball //Innovatsionnoerazvitienauki I obrozovaniemejdunarodnayanauchno-prakticheskayakonferensiya. – 2020.
20. Rasulovna S. N. THE PLACE OF PHYSICAL TRAINING AND SPORTS IN THE LIFE OF SCHOOL STUDENTS //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – T. 2. – №. 04. – C. 306-312.
21. Rasulovna S. N. TOOLS FOR DEVELOPING SPECIAL PHYSICAL TRAINING AND PHYSICAL QUALITIES IN SPORTS GAMES //E-Conference Globe. – 2021. – C. 299-305.
22. Sabirova Nasiba Rasulovna. Basics and Advantages of Individual Training to Increase Technical and Tactical Training of Basketball Players. *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH*. ISSN: 2690-9626 Vol.3, No 1, 2022
23. Akmalovich, D. B., Khalilovich, T. M., Rasulovna, S. N., & Savrievich, F. F. (2020). Psychological impact of football games to the formation of individuality of the student. *Journal of Critical Reviews*, 7(6), 466-469.
24. Сабирова Н. Р. Значение физической культуры в современном обществе //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 6 (51).
25. Усмонов, Ш. Х., Самадов, С. С., & Фармонов, А. Ч. (2021). Физкультурно-спортивные интересы и мотивационные установки студентов. *Вопросы науки и образования*, (4), 129.
26. Xujamurodovich, U. S. (2022). CORRECTIONS IN JUMPING IN THE DEFENSIVE BLOCK AGAINST AN OPPONENT IN VOLLEYBALL. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(1), 442-450.